

Date: 19<sup>th</sup> January-2025

**JAHON OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISHI**

**Jabborova Marhaboxon Asqarali qizi**

Farg'ona davlat universiteti geografiya yo'nalishi 24.60-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ma'lumki oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish aholi ehtiyojlarini qondiruvchi sanoat tarmoqlaridan biridir. Ushbu maqolada jahon mamlakatlarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va uning hududiy tarkibi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** oziq-ovqat mahsulotlari, iste'mol, oziq-ovqat sanoatining tarmoq tuzilishi, xom ashyo, oziq-ovqat sanoati transmilliyashuv darajasi

**Annotation:** It is known that food production is one of the industries that meets the needs of the population. This article analyzes the production of food products in the countries of the world and its territorial structure.

**Key words:** food products, consumption, sectoral structure of the food industry, raw materials, the degree of transnationalization of the food industry

Oziq-ovqat sanoati sanoat majmuasining eng yirik tarmoqlaridan biridir. U qishloq xo'jaligi bilan bevosita bog'langan va agrosanoat kompleksining ajralmas qismi hisoblanadi. Oziq-ovqat sanoatining asosiy vazifasi oziq-ovqat mahsulotlari va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishdir. Ba'zan yog' ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan tarmoqlarda yuvish vositalari vasovunlarni ishlab chiqarishga ham ruxsat beriladi.

Oziq-ovqat sanoati barcha davlatlar iqtisodiyotida mavjud. Lekin ular bir-biridan nafaqat rivojlanish darajasi, balki xalqaro ixtisoslashuv holati bo'yicha ham farq qiladi (8-rasm). Shubhasiz, rivojlangan davlatlarda bu tarmoq yuksak darajada shakllantirilgan. Agrosanoat majmuasi doirasida qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan oziq-ovqat sanoati tomonidan xomashyo manbai sifatida yaqindan foydalaniladi, ichki savdo bilan ham doimiy aloqalar o'rnatilgan. Tarmoq sohalarining xalqaro tasnifi quyidagi oziq-ovqat sanoati korxonalari (1-rasm) mavjudligini nazarda tutadi:

- Go'sht va go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Baliq va baliq mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Meva va konserva mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Yog'-moy ishlab chiqarish;
- Sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Un tortish;
- Kraxmal ishlab chiqarish;
- Non va non mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Shakar va shakar mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Makaron mahsulotlari ishlab chiqarish va boshqalar.

Ushbu turdag'i korxonalarning aksariyati qayta ishslash tarmoqlariga tegishli. Ulardan faqat ba'zilari undiruvchi xususiyatga ega (tuz, baliq va boshqalar ishlab

Date: 19<sup>th</sup> January-2025


chiqarish). Birlamchi xom ashyni yuqori sifatli qayta ishlash uchun har bir korxona o‘zining texnologik sxemalaridan foydalanadi. Qanday texnologik jarayon ishlatilishiga qaramay ularning barchasi yakuniy mahsulotning yuqori xavfsizligini ta’minlash uchun xizmat qiladi.

Amaldagi usullar ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifatini yaxshilashi, ularni xaridolarga yanada jozibador qilishi kerak. Bundan tashqari, barcha qayta ishlashning texnologik sxemalari imkon darajada mahsulotlarning uzoq davr saqlanishini ta’minlashi kerak. Bu holat ularni uzoq masofalarga tashish uchun juda muhimdir.

Oziq-ovqat sanoatining tarmoq tuzilishi uning quyidagi toifalarga bo‘linishini nazarda tutadi:

- import xom ashyo bilan ishlaydigan korxonalar kiradi. Ularni joylashtirish yirik transport markazlariga - temir yo‘llarga, portlarga va boshqalarga qaratilgan. Ular ishlab chiqaradigan mahsulotlar, odatda, transportabelligi bilan ajralib turadi.
- xom ashyyoga yoki oxirgi iste’molchiga yaqinroq joylashgan zavod va fabrikalarni o‘z ichiga oladi.

Oziq-ovqat sanoati o‘zining rang-barang yo‘nalishlariga ega, binobarin eng muhim va zarur bo‘lgan yo‘nalishlarini ta’riflash maqsadga muvofiqdir.



Date: 19<sup>th</sup> January-2025

### **1-rasm. Oziq-ovqat sanoati tarmoqlari**

**Go'sht sanoati.** Go'sht tayyorlash va go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish avvalambor Yevropaning rivojlangan mamlakatlari (ayniqsa Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Niderlandiya, Daniya va Belgiya), Shimoliy Amerika, Avstraliya va Yangi Zelandiya, shuningdek ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlar – Xitoy, Braziliya, Argentina, Urugvay kabilarning xalqaro ixtisosligi hisoblanadi. Juhon bozorida go'sht mahsulotlarini eksport qilishda yetakchi davlatlar G'arbiy Yevropa mamlakatlari (jahon eksportining 50% ga yaqini), AQSh, Braziliya, Avstraliya kabilar bo'lsa, eng ko'p import qiluvchilar G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Rossiya va Yaponiya hisoblanadi.

**Sut sanoati.** Sut tayyorlash va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish Yevropa, AQSh, Rossiya, Belorussiya, Ukraina, Avstraliya va Yangi Zelandiya mamlakatlarida yaxshi rivojlangan. Sut mahsulotlari ichida fransuz va fin sariyog'i, Finlyandiya va Estoniya qaymog'i, Fransiya, Germaniya, Niderlandiya,

Shveytsariya, Litva pishloqlari va Fransiya, Germaniyada ishlab chiqariladigan yogurtlar juda mashhurdir.

Jahon bozoriga sut mahsulotlarini yetkazib beruvchi asosiy mamlakatlar Yevropa (ayniqsa Shimoliy va Markaziy), Avstraliya, Yangi Zelandiya, asosiy import qiluvchi mamlakatlar MDH davlatlari va Xitoydir.

**Qand sanoati.** Dunyoda yiliga 130 mln tonnadan ko'p qand xom ashyosi ishlab chiqariladi, uning 80% i shakarqamish, 20% dan ko'prog'i qand lavlagidan olinadi. Dunyo bo'yicha ikkita qand yetishtiruvchi region ajratiladi – bular, dunyoda yetishtiriladigan qandning  $\frac{3}{4}$  qismini beruvchi Osiyo va  $\frac{1}{4}$  qismini yetishtiruvchi Lotin Amerikasi hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda shakarqamish va qandlavlagidan olinadigan qandning ulushi teng bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlarda 95% qand shakarqamishdan olinadi.

Tozalanmagan qand yetishtiruvchi eng yirik davlatlar Braziliya, Hindiston, Xitoy, AQSh, Avstraliya, Tailand, Fransiya, Meksika, Germaniya, Pokiston va Kuba hisoblanadi. Eng ko'p eksport qiluvchi davlatlar Braziliya, Avstraliya, Kuba, Tailand, Gvatemala va G'arbiy Yevropa mamlakatlari (ayniqsa Fransiya, Germaniya, Belgiya) kabilardir.

**Vinochilik.** Uzum yetishtirish va uzumdan olinadigan vino ishlab chiqarish mo'tadil mintaqaning janubiy kengliklarida va subtropik iqlim mintaqasida joylashgan mamlakatlarda shakllangan. An'anaviy vinochilik O'rta Yer dengizi, Qora dengiz va Kaspiy dengizi havzasidagi mamlakatlarda rivojlangan. Uzum vinosini ishlab chiqarish AQSh, Lotin Amerikasi mamlakatlari (ayniqsa Argentina va Chilida), JAR va Avstraliyada jadal rivojlanmoqda.

Jahonda 2022 yil 260 mln gekalitrga yaqin uzum vinosi ishlab chiqarildi. Vinochilikda Yevropa mintaqasi yetakchilik qiladi, dunyoda ishlab chiqariladigan uzum vinosining  $\frac{2}{3}$  qismi ushbu mintaqaga to'g'ri keladi. Eng ko'p vino ishlab chiqaruvchi mamlakatlar:

- Italiya (50,3 mln gekalitrga yaqin);
- Fransiya (44,2 mln gekalitrdan ortiq);
- Ispaniya (33 mln gekalitrga arofida);

Date: 19<sup>th</sup> January-2025

- AQSh (23,1 mln gekalitrga yaqin);
- Chili (12,4 mln gekalitrga yaqin).

Bu davlatlarga dunyoda tayyorlanadigan vinoning 62.7% i to‘g‘ri keladi. Shuningdek, uzum vinosini eng ko‘p ishlab chiqaruvchi davlatlar o‘nligiga Avstraliya, Argentina, JAR, Germaniya va Portugaliya kiradi.

Oziq-ovqat sanoati transmilliyashuv darajasi yuqoriligi bilan ham ajralib turadi. Nestle, Unilever, Mondelez, Cargill, Barry Callebaut va Kraft Heinz Company mazkur tarmoq kompaniyalari orasida eng yiriklari bo‘lib hisoblanadi.

Adabiyotlar

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:**

1. Amanbayeva Z.A., Safarova N.I., Gapparov A., Rajabov F.T. Sanoat, qishloq xo’jaligi va transport geografiyasi. Darslik. 2024.
2. Асанов Г.Р. Социал-иқтисодий география: термин ва тушунчалар изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1990.
3. Воронин В.В., Шарыгин М.Д. Экономическая, социальная и политическая география. – Самара: СГЭУ, 2006.
4. В.П.Максаковский. Экономическая и социальная география мира. – М.: Просвещение, 2009.
5. Safarova N.I., Amanbayeva Z.A., Gapparov A. Moddiy ishlab chiqarish aasoslari. T.: 2013.